(9). Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб., М., "Высш. шк.", Дубна, Изд. центр "Феникс", 1996, 310–381 с.

(11). Шепилова Т.А. Французские фразеологические единицы с компонентом зоонимом: семантический, функционально-стилистический и когнитивный аспекты. Дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук, Воронеж, 2001, 157 с.

(12). Николаева Е.А. Первичное фразообразование в бельгийском варианте французского языка. Семантический аспект, АКД, М., МПГУ, 2006, 18 с.

(13). Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. АН, ин-т яз-ния, М., "Наука", 1986, с. 34.

Sadullayeva Sapura Batirbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi; sapura86325gmail.com)

KOGNITIV LINGVISTIKADA KONSEPT: TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT O'RTASIDAGI INTEGRATIV YONDASHUV

Annotatsiya. *Maqolada konsept kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatildi. Tadqiqotda semantik tahlil, metafora va metonimiya modellashtirish hamda diskursiy kuzatuv usullari qo'llanildi. Natijalar konseptning leksik, obrazli va aksiologik qatlamlarini, freym va prototip mexanizmlarini hamda madaniy motivatsiyani ochib beradi. Ilmiy yangilik konsept indikatorlarini tizimlashtirish va ularni amaliy tahlilda qo'llash mezonlarini taklif qilishda namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *konsept, kognitiv lingvistika, freym, prototip, metafora, metonimiya, diskurs, madaniyat.*

Садуллаева Сапура Батирбек кизи (преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; sapura86325gmail.com)

КОНЦЕПТ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД МЕЖДУ ЯЗЫКОМ, МЫШЛЕНИЕМ И КУЛЬТУРОЙ

Аннотация. *Статья посвящена анализу концепта с позиции когнитивной лингвистики, выявлению взаимосвязей между языком, мышлением и культурой. В исследовании использовались семантический анализ, моделирование концептуальных метафор и метонимий, а также наблюдение в дискурсе. Результаты показывают лексический, образный и аксиологический уровни концепта, механизмы фрейма и прототипа, а также культурную мотивацию. Научная новизна заключается в систематизации индикаторов концепта и предложении критериев их практического анализа.*

Ключевые слова: *концепт, когнитивная лингвистика, фрейм, прототип, метафора, метонимия, дискурс, культура.*

Sadullayeva Sapura Batirbek qizi (teacher Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; sapura86325gmail.com)

CONCEPT IN COGNITIVE LINGUISTICS: AN INTEGRATIVE APPROACH BETWEEN LANGUAGE, THOUGHT, AND CULTURE

Annotation. *The article analyzes the concept from the perspective of cognitive linguistics, highlighting the interrelations between language, thought, and culture. The study employs semantic analysis, conceptual mapping of metaphor and metonymy, and discourse-based observation. The results reveal the lexical, figurative, and axiological layers of the concept, as well as frame and prototype mechanisms and cultural motivation. The scientific novelty lies in systematizing concept indicators and proposing criteria for their practical analysis.*

Keywords: *concept, cognitive linguistics, frame, prototype, metaphor, metonymy, discourse, culture.*

Kirish. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning kognitiv yo'nalishi jadal rivojlanmoqda, uning maqsadi nafaqat tilni o'rganish, balki bilishni, ya'ni, insonning aqliy va intellektual qobiliyatlari to'plami bo'lgan kognitiv jarayonni ham o'rganishdir. Kognitiv lingvistika tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tajribasini tartiblaydigan va bilimni tuzadigan kognitiv mexanizm sifatida tadqiq etadi. Shu nuqtayi nazardan konsept kategoriyasi markaziy o'rin egallaydi, chunki u til birliklari ortida turgan mental tuzilmalarni, tajriba sxemalarini va madaniy ahamiyatni birlashtiruvchi uzel vazifasini bajaradi. So'nggi yillarda konseptga oid tadqiqotlar ko'paygan bo'lsa-da, ilmiy adabiyotda ikki muammo saqlanib qolmoqda: birinchisi, "konsept"ning ta'rifi va chegaralari turli maktablarda bir xil emasligi; ikkinchisi, til, tafakkur va madaniyatning o'zaro ta'siri konsept tahlilida ko'pincha parchalanib, alohida yo'nalishlar doirasida yoritilishi. Natijada konseptni tahlil qilishda mezonlarning barqarorligi, tahlil birliklari o'rtasidagi nisbat va empirik dalilga tayanuvchanlik masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Konsept" atamasi tarixiga nazar tashlansa, avval, falsafa, psixologiya, psixolingvistika sohalarida keng qo'llanilgan, keyinchalik, kognitiv tilshunoslik va lingvoma-

daniyatshunoslikda o‘ziga xos ma’no olgan. Konsept (lotincha “conceptus”–“tushuncha” degan ma’noni anglatadi) atamasi fanga, dastlab, o‘rta asrlarda U.Gobbs, P.Abelyar, U.Okkam kabi faylasuflar tomonidan olib kirilgan. Ular konseptni narsalarning belgilarini umumlashtiruvchi va ong tomonidan uning ichki foydalanishi uchun gavdalantirilgan, o‘zida muhim va dolzarb axborotni jamlagan universal omil sifatida izohlaganlar. Lingvistik adabiyotlarda esa bu tushuncha XX asrning birinchi yarmidan paydo bo‘la boshlagan. Mazkur atama ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi S.A.Askaldov-Alekseyev maqolasida qo‘llangan. Biroq shunga qaramay, 70-yillargacha ham u izohtalab mavzulardan biri sifatida alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan [9;53-b.].

Kognitiv ilmiy paradigma konsepsiyani bilimning minimal "g‘ishtchasi" sifatida emas, ko‘p qatlamli, dinamik va kontekstga sezgir tuzilma sifatida ko‘radi. Misol uchun, o‘zbek tilida "mehmondo‘stlik" – lug‘at ma’nosi "mehmonni kutish" bo‘lsa, konseptda non pishirish, dasturxon yoyish va oilaviy issiqlik bilan to‘ldirilgan tajriba sifatida tushuniladi. Konsept ma’no bilan tenglashtirilmaydi: ma’no til tizimida kodlangan bo‘lsa, konsept tajriba, idrok, hissiy baho va ijtimoiy normalar bilan to‘ldirilgan mental modeldir. Shu bois konseptni" so‘z ma’nosi" orqali bevosita chiqarib olish cheklangan, u til, diskurs va madaniy amaliyotlar kesishmasidagi indikatorlar majmuasi orqali tiklanadi. Bu yondashuv Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasi hamda Langakerning kognitiv grammatika qarashlari bilan uyg'unlashadi, chunki ularning ishlari ma’noni qo‘llanish va tajriba bilan bog‘laydi [4;276-b.; 3;516-b.].

Rus kognitiv va lingvomadaniy an’analarida konsept "madaniy mazmun tashuvchi mental birlik" sifatida talqin qilinadi va til birliklarida ijtimoiy qadriyatlar izini qoldiradi [2;477-b,].

Mazkur maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, konsept talqinini integrativ model sifatida asoslab berish, ya’ni, konseptning kognitiv mexanizmlari bilan birga madaniy motivatsiyasini ham izchil metodologik doirada ko‘rsatish zarur. Tadqiqot bo‘shlig‘i konsept tahlilining amaliy mezonlari va qatlamlarini bir xil tilda ifodalash, ularni diskursiy dalillar bilan asoslash hamda til–tafakkur–madaniyat bog‘liqligini bitta analitik ramkada yig‘ish bilan bog‘liq. Maqolaning maqsadi konseptni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan talqin qilishning nazariy asoslarini aniqlash va til, tafakkur hamda madaniyat o‘rtasidagi munosabatni konsept tahlili orqali modellashtirishdir. Maqolaning maqsadi konseptni kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan talqin qilishning nazariy asoslarini aniqlash hamda til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni konsept tahlili orqali ko‘rsatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: konsept haqidagi asosiy talqinlarni tizimlashtirish; konsept tuzilmasining asosiy qatlamlarini ajratib ko‘rsatish; konsept indikatorlarini aniqlash; til birliklari va diskurs kontekstlari orqali konseptualizatsiya jarayonini yoritish. Natijada konsept tahlilini amalga oshirish uchun izchil metodik sxema taklif etiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot interdisiplinar yondashuvga asoslanadi. Unda kognitiv semantika, lingvomadaniyatshunoslik hamda diskurs tahlili metodlari uyg‘un holda qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini konseptual metafora va metonimiyani inson tafakkurida ma’no hosil qilishning muhim kognitiv mexanizmi sifatida talqin qiluvchi qarashlar tashkil etadi [1;111–137-b.]. Shuningdek, freym semantikasi hamda prototip nazariyasining asosiy tamoyillaridan foydalanildi.

Konseptni tahlil qilishda bitta manbaga tayanib qolmaslik maqsadida uch turdagi dalillar birlashtirildi:

•**Leksik-semantik dalillar**, ya’ni, konseptni ifodalovchi asosiy nominatsiyalar hamda ularning sinonimik va antonimik munosabatlari. Masalan, “go‘zallik” o‘zbek tilida *chiroy, latofat, husn, jamol* kabi so‘zlar bilanifodalanadi.

•**Diskursiy dalillar**, ya’ni, turli nutq janrlarida uchraydigan tipik kollokatsiyalar, baholovchi birliklar va pragmatik kontekstlar. Masalan: *“tabiatning go‘zalligi”, “ichki go‘zallik”, “qalb go‘zalligi”* kabi birikmalar turli diskurslarda konseptning turli qirralarini ochib beradi.

•**Madaniy-semiotik dalillar**, ya’ni, urf-odatlar, ramzlar, stereotiplar va madaniy qadriyatlarni ifodalovchi barqaror obrazlar.

Masalan, o‘zbek madaniyatida *oydek yuz*, *guldek qiz*, *latofatli kelin* kabi tasvirlar go‘zallik konseptining madaniy obrazlarini ifodalaydi. Empirik material sifatida o‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari matnlari, badiiy adabiyotdan tanlangan parchalar va izohli lug‘atlarda berilgan ma’no sharhlari tahlil qilindi. Tadqiqotda materiallar qat’iy statistik korpus sifatida o‘lchanmadi, chunki maqolaning asosiy maqsadi miqdoriy natijalarni aniqlash emas, balki konsept indikatorlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishdan iborat. Materiallarni tanlashda takrorlanuvchanlik va janrlararo barqarorlik mezonlariga amal qilindi. Agar biror birlik faqat bitta muallif uslubiga xos bo‘lsa, u konsept indikatoriga kiritilmadi. Shuningdek, qiyosiy-analitik usul yordamida konseptning kognitiv va madaniy qatlamlari ajratildi hamda rus va xalqaro ilmiy adabiyotlarda berilgan talqinlar bilan solishtirildi [2;477-b.;7;27-b.].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari konsept tuzilmasini uchta asosiy qatlam orqali tushuntirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Birinchi qatlam nominativ-semantik qatlam bo‘lib, u konseptning til tizimidagi eng barqaror ifodasini ko‘rsatadi. Bu qatlamda konsept asosiy nomlar, ularning morfologik hosilalari hamda sinonimik qatorlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, go‘zallik konsepti *go‘zallik, chiroy, latofat, husn, jamol* kabi birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu birliklar konseptning lug‘aviy yadrosini tashkil etadi. Biroq faqat nominativ qatlamga asoslangan tahlil konseptning obrazli va qadriyatga oid tomonlarini to‘liq ochib bera olmaydi.

Ikkinchi qatlam *obrazli-assotsiativ qatlam* bo‘lib, u metafora, metonimiya va stereotip obrazlar orqali shakllanadi. Konseptual metaforalar bu qatlamda abstrakt tajribani tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida go‘zallikni tasvirlashda quyidagi metaforik obrazlar keng qo‘llanadi: *oydek yuz; guldek qiz; bahordek chiroy;nurli chehra.* Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, go‘zallik ko‘pincha tabiat obrazlari orqali ifodalanadi. Bunday tasvirlar insonning estetik tajribasini madaniy me’yorlar asosida tartibga soladi.

Uchinchi qatlam aksiologik-pragmatik qatlam bo‘lib, unda konseptning baholovchi va ijtimoiy ahamiyatga ega jihatlari namoyon bo‘ladi. Konseptlar nafaqat muayyan ma’noni anglatadi, balki unga nisbatan ijtimoiy munosabatni ham ifodalaydi. Masalan: *ichki go‘zallik tashqi go‘zallikdan muhim; go‘zallik qalb pokligida*

Bu kabi ifodalar go‘zallik konseptining nafaqat estetik, balki axloqiy qadriyatlar bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, konsept tuzilmasini freym va prototip mexanizmlari orqali izohlash mumkinligini ko‘rsatdi. Freym konsept bilan bog‘liq tipik vaziyatni ifodalasa, prototip kategoriya ichidagi eng tipik namunani bildiradi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, konseptning prototip markazi va periferiyasi diskursga qarab o‘zgarishi mumkin, biroq bu o‘zgarish madaniy me’yorlar bilan chegaralanadi.

Olingan natijalar konseptni faqat lug‘aviy ma’no bilan tenglashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Konsept aslida ko‘p qatlamli mental va madaniy tuzilma hisoblanadi.

Lakoff va Jonson konseptual metafora abstrakt tafakkurni tashkil etuvchi muhim mexanizm ekanini ta’kidlaydi [4;276-b.]. Tadqiqot natijalari ham metafora konseptning obrazli qatlamini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, metafora aksiologik qatlam bilan ham bog‘lanib, muayyan baholashni tabiiy ko‘rinishda ifodalashga xizmat qiladi.

Langaker kognitiv grammatika doirasida ma’noni konseptualizatsiya jarayoni sifatida talqin qiladi va til birliklarining ma’nosi ularning qo‘llanish kontekstiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [3;516-b.]. Tadqiqot natijalari ham konsept tahlilida diskurs kontekstining muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Rus lingvomadaniyatshunoslik an’anasida konsept madaniyatning muhim mazmuniy birligi sifatida qaraladi. Xususan, Stepanov konseptni madaniyatning “asosiy hujayrasi” sifatida talqin qilgan [8; 992-b]. Ushbu qarash konseptning aksiologik qatlamini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, konseptni faqat qadriyatlar bilan bog‘lash ham yetarli emas. Konseptning nominativ va obrazli qatlamlari ham uning kognitiv tuzilishini shakllantiradi.

Karasik konseptni diskurs va kommunikativ xulq bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi [2;477-b]. Bu yondashuv ham tadqiqot natijalari bilan mos keladi, chunki konsept til tizimi, diskurs va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiradi.

Freym semantikasi doirasida Charles J. Fillmore ma’noni muayyan situativ tuzilma sifatida tushuntiradi. Unga ko‘ra, har bir so‘z ortida ma’lum bir “sahna” yoki vaziyat modeli mavjud bo‘ladi va so‘z ma’nosini tushunish uchun shu vaziyatni ongda tiklash zarur [1;115-b.]. Tadqiqot natijalari freym tahlili konseptning situativ tuzilishini aniqlashda samarali metod ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ijtimoiy rollar va ijtimoiy kutilmalar bilan bog‘liq konseptlarni o‘rganishda bu yondashuv muhim ahamiyatga ega.Masalan, go‘zallik konsepti bilan bog‘liq freymda quyidagi elementlar namoyon bo‘lishi mumkin:

•tashqi ko‘rinish (chehra, kiyinish, qomat);

•ichki sifatlar (odob, muloyimlik, samimiyat);

•ijtimoiy baholash (maqtov, e’tirof, ideal obraz).

Biroq freym yondashuvi o‘z-o‘zidan baholovchi komponentni to‘liq ochib bera olmaydi. Ko‘pincha, baholash unsurlari diskursiy pragmatika orqali aniqlanadi. Shu sababli freym tahlilini baholovchi indikatorlar bilan birlashtirish konseptni yanada to‘liqroq tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, Eleanor Rosch tomonidan ishlab chiqilgan Prototype Theory kategoriya chegaralarining qat’iy emasligini va kategoriya ichida markaz hamda periferiyaning mavjudligini asoslab beradi [7;27–48-b]. Tadqiqot natijalari prototip markazi diskursga qarab o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu bois prototipni faqat statik namuna sifatida emas, balki kontekstga moslashuvchi kognitiv tayanch sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, go‘zallik konseptining prototipi turli diskurslarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin:

•badiiy adabiyotda – ruhiy poklik va ichki latofat;

•ommaviy madaniyatda – tashqi ko‘rinish va jismoniy joziba;

•xalq ogʻzaki ijodida – tabiat obrazlari bilan bogʻliq estetik tasvirlar.

Oʻzbek tilshunosligida semantika va uslubiyat boʻyicha shakllangan an'analar konsept tahlili uchun muhim tayanch boʻla oladi, chunki ular ma'no qatlamlari, uslubiy rang va nutqiy muhit masalalarini izchil yoritgan [5;256-b.].

Mazkur natijalar shu an'analarni kognitiv yondashuv bilan integratsiya qilish mumkinligini koʻrsatadi: masalan, uslubiy rang va baholovchi birliklarni aksiologik qatlam indikatorlari sifatida, frazeologik barqarorlikni esa konseptning madaniy kodlash mexanizmi sifatida koʻrish mumkin. Rahmatullayevning oʻzbek leksik-semantik tizimi boʻyicha ishlari nominativ qatlamni tahlil qilishda metodik aniqlik beradi, chunki konseptni rekonstruksiya qilish, koʻpincha, aynan leksik munosabatlar tarmogʻidan boshlanadi [6;152-b.].

Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda, til, tafakkur va madaniyat oʻrtasidagi munosabat konsept orqali oddiy "uch boʻgʻinli" bogʻlanish sifatida emas, balki koʻp yoʻnalishli tizim sifatida namoyon boʻlishi aniqlanadi.

•**Til** konseptni kodlaydi va uni ifodalash vositalarini taqdim etadi.

•**Tafakkur** konseptni inson tajribasi asosida shakllantiradi.

•**Madaniyat** esa konseptning baholovchi va ramziy qatlamlarini barqarorlashtiradi.

Biroq bu uch omil oʻzaro mustaqil emas. Ular diskurs jarayonida doimiy ravishda bir-biriga ta'sir qiladi va konsept mazmuni ham shu jarayonda yangilanib boradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda konseptni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan talqin qilishning nazariy va metodik asoslari koʻrib chiqildi. Tahlil natijalari konseptni faqat lugʻaviy ma'no bilan cheklab boʻlmasligini, balki u til, tafakkur va madaniyat oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi koʻp qatlamli mental tuzilma ekanini koʻrsatdi. Tadqiqot davomida konsept tuzilmasining nominativ-semantik, obrazli-assotsiativ va aksiologik-pragmatik qatlamlari ajratildi hamda ularning oʻzaro bogʻliqligi asoslab berildi. Shuningdek, freym va prototip mexanizmlari konsept tuzilmasini tizimli tarzda tushuntirishda samarali nazariy vosita ekani aniqlandi. Leksik birliklar, diskurs kontekstlari hamda madaniy-semiotik belgilarni birgalikda tahlil qilish konseptni yanada toʻliq rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Natijada konsept indikatorlarining majmuasi aniqlashtirildi va konsept tahlilini amalga oshirish uchun integrativ metodik yondashuv taklif qilindi. Ushbu yondashuv keyingi tadqiqotlarda, xususan, muayyan lingvomadaniy konseptlarni, jumladan, goʻzallik konseptini chuqurroq oʻrganishda nazariy asos boʻlib xizmat qilishi mum-kin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Fillmore C.J. Frame Semantics. In: Linguistics in the Morning Calm. Seoul, Hanshin Publishing Company, 1982, p. 111–137.

(2). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, "Перемена", 2002. 477 с.

(3). Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. Theoretical Prerequisites. Stanford, Stanford University Press, 1987, 516 p.

(4). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 2003, 276 p.

(5). Нурмонов А. Умумий тилшунослик. Тошкент, "Ўзбекистон", 2001, 256-бет.

(6). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг лексик семантикаси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1985, 152-бет.

(7). Rosch E. Principles of Categorization. In: Cognition and Categorization. Hillsdale, Lawrence Erlbaum Associates, 1978, p. 27–48.

(8). Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. Москва, "Академический проект", 2004, 992 с.

(9). Sharipova O.X. Kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va psixolingvistikada konseptga munosabat masalasi. SCIENCE TIME, 2024, vol. 3, Issue 1. DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.14919640 52–54 p.

Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat Pedagogik mahorat markazi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor; azamaturalov06@gmail.com)

IJTIMOIY TARMOQLARDA YOZUV MADANIYATI VA STILISTIKA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda yozuvning kommunikativ, stilistik va pragmatik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Onlayn muloqot shakllari – chat, post, sharh va statuslar an'anaviy yozma nutqdan farqli ravishda tezkorlik, ixchamlik va interaktivlik tamoyillariga asoslanishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Matnda onlayn nutq modeli, fragmental struktura, auditoriyaga moslashuv mexanizmlari hamda stilistik ixchamlashuv jarayonlari yoritiladi.*

Kalit soʻzlar: *onlayn yozuv, kommunikativ model, stilistik ixchamlashuv, multimodal nutq, emoji, sleng, auditoriya moslashuvi, til brendlashuvi, normativ va noformal yozuv.*